


AHOLIGA TIBBIY YORDAM KO'RSATUVCHI MUASSASALAR
FAOLIYATI TO'G'RISIDA

Viloyatda 2020-yil 1-yanvar holatiga shifoxona muassasalar soni 63 ta bo'lib, ularda o'rindiqlar soni 5257 tani tashkil etdi. Shifoxonalarda jami 232268 ta bemorlar davolangan. Shundan Jizzax shahrida 90939 tasi (jami davolangan bemorlarga nisbatan 39,2 %) ni, Sharof Rashidov tumanida 21950 tasi (9,5 %), Zomin tumanida 21529 tasi (9,3 %), 18957 tasi (8,2 %) G'allaorol tumanida, 13122 tasi (5,6 %) Forish tumanida, 12879 tasi (5,5 %) Baxmal tumanida, 12600 tasi (5,4 %) Paxtakor tumanida, 9411 tasi (4,1 %) Zarbdor tumanida, 9404 tasi (4,0 %) Do'stlik tumanida, 6806 tasi (2,9 %) Mirzacho'l tumanida, 5057 tasi (2,2 %) Zafarobod tumanida, 4949 tasi (2,1 %) Yangiobod tumanida, 4665 tasi (2,0 %) Arnasoy tumanlarida davolangan.


Davolash profilaktika muassasalari soni, birlik




Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yil 1-yanvar holatiga 194 ta ambulatoriya- poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, eng ko'pi Jizzax shahrida 68 ta (jami ambulatoriya- poliklinikalarga nisbatan 35,1 % ni tashkil etadi), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (10,8 %) ni, G'allaorol va Zomin tumanlarida 18 tadan (9,3 %) ni, Baxmal tumanida 16 ta (8,2 %) ni tashkil qiladi.

Viloyat bo'yicha 2020-yil 1-yanvar holatiga jami 2271 ta shifokorlar mavjud bo'lib, shundan 805 tasi (35,4 %) ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Shifokorlarning 85 % ni Jizzax shahar, Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Zomin, Paxtakor va Forish tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tibbiyot xodimlar soni, kishida



2019-yil oxiriga shifoxona muassasalaridagi o‘rinlar yo‘nalishlari, birlikda



Ambulatoriya – poliklinika muassasalarining bir smenadagi quvvati, ming kishi




Sog‘lijni saqlash tizimini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish maqsadida olib borilayotgan islohatlar natijasida mustaqillik yillarda statsionar shifoxona muassasalarida ham tarkibiy o‘zgartirishlar amalga oshirildi, natijada 2019-yildagi shifoxona, statsionar muassasalar soni 2018-yilga nisbatan 1,9 % oshdi. Shifoxonalardagi shifo o‘rinlar soni 2018-yil 5,1 mingni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilda 5,2 ming o‘rinni tashkil qildi.

Aholining shifoxona o‘rinlari bilan ta’minlanganlik darajasi dinamikasi, shifoxona muassasalarida 10 000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rinlar soni




Jizzax viloyatida hududlar bo‘yicha aholining kasalliklarga chalinishi, ming kishi.




Viloyatda 2019-yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalarida qayd qilingan kasalliklar soni 454 307 tani tashkil etgan, shundan 14 yoshgacha bolganlari 112 967 tasini (jami kasalliklar soniga nisbatan 24,9 %) bolib, 15-17 yoshgacha bolganlari 37 932 tashkil etadi va (8,3 %)ni 18-yosh va kattalari 303 708 tasi va (66,8 %) ni tashkil etadi.

Yosh guruhlari bo‘yicha kasalliklar soni, kishida



Qayd qilingan kasalliklar soni bo‘yicha eng ko‘p Jizzax shahrida (jami kasalliklar soniga nisbatan 33,4 %), Zomin tumani (11,0 %), Forish tumani (10,9 %), Paxtakor tumani (7,8 %), Sharof Rashidov tumani (6,4 %), Baxmal tumani (6,1 %), G‘allaorol tumani (6,0 %), Mirzacho‘l tumani (5,3 %), Zarbdor tumani (5,0 %), Yangiobod tumani (2,5 %), Zafarobod tumani (2,1 %), Arnasoy tumani (1,8 %), Do‘slik tumani (1,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida yosh guruhlari bo‘yicha kasalliklar soni, kishida



Viloyatda 2019-yilda shifoxona va ambulatoriya-poliklinika muassasalarida jami 2,3 ming shifokor va shu bilan bir qatorda 12,7 ming nafar o'rta tibbiyot xodimlari aholiga xizmat ko'rsatdi. 2019-yilda har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni 16 tani tashkil qilgan bo'lsa, har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni esa 91 tani tashkil qildi.

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanishi

Yillar	Jami shifokorlar soni (ming kishida)	Har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni (ming kishi)	Har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni
1992-yil	2.3	27.8	7.7	94.5
1995-yil	2.3	25.7	9.1	103.0
2000-yil	2.2	21.8	9.1	91.8
2005-yil	2.1	19.6	9.4	89.7
2010-yil	1.9	17.4	10.4	91.5
2017-yil	2.1	16.1	12.5	94.3
2019-yil	2.3	16.4	12.7	91.5

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
 (72) 221-51-36
 (72) 222-81-36